



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2, Feb., 2022

## TRAINING YOUNG PEOPLE FOR ADDITIONAL CAREERS ON THE BASIS OF NATIONAL CRAFTS

Nurimova Maftuna

Master of The 1st Stage of The Pedagogical Institute of Karshi State University

### Annotation

The study of handicrafts strengthens the skills of restoring and developing the national spirit, way of life, traditions of the people, the study of national values, historical monuments, the rich heritage of folk craftsmen and their use in their practical activities.

**Keywords:** Crafts, foundation, youth, opportunity, state

### Аннотация

Изучение ремесел закрепляет навыки восстановления и развития национального духа, быта, традиций народа, изучения национальных ценностей, исторических памятников, богатого наследия народных мастеров и использования их в своей практической деятельности.

**Ключевые слова:** Ремесла, фонд, молодежь, возможность, государство.

### Annotatsiya

Хунармандчилик турларини ўрганиш орқали халқнинг миллий руҳини, яшаш тарзини, анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш, миллий қадриятлар, тарихий ёдгорликлар, халқ усталарининг бой меросини ўрганиш ва улардан ўз амалий фаолиятиларида фойдаланиш кўникмалари мустаҳкамланади.

**Kalit so`zlar:** Hunarmandchilik, negiz, yoshlar, imkoniyat, davlat

### Kirish

Milliy hunarmandchilik negizida yoshlarni qoshimcha kasblarga tayyorlashda davatimiz tomonidan yoshlarga yaratib berilayotgan ishlar xususida to`xtalmaslikning imkoni yoq. Sababi, bugun yoshlarning shu barobarida uyushmagan yoshlarning ham sifatli bilim va ko`nikma, kasb hunar egallashlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berildi. Qo`srimcha kasblarga tayyorlashda faqatgina ma`naviy emas balki moddiy imkoniyatlar ham ochib berila boshladi. Jumladan, o`qil-qizlar iqtidorini rivojlantirish, ularni kasb-hunarga tayyorlash



Website:

<https://wos.academiascience.org>

1266



maqsadida davlat dasturlari e`lon qilindi. Masalan, Iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan, kambag`allikni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishning poydevorini yaratish maqsadida:

a) ishsiz a'zolari bor oilalarga, jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirildi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun, shu jumladan, yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanimayotgan yer maydonlarida 0,1 hektardan 1 hektargacha yer ajratildi. Ajratilgan yer maydonlari sug'orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug'orish tizimi va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta'minlandi. Berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug', ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratilishi yo'lga qo'yildi. Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun



kerak bo'lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar ajratilishi amaliyoti yo'lga qo'yildi. Birgina 2021-yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishslashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 61 ming hektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarning ko'lami tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi. Eng yaxshi loyihalarning har biri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha grant mablag'larini beriladi va ular 2022-2023-yillarda Davlat budjetidan 100 milliard so'm miqdorida qo'shimcha ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshirilmoqda. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tajribasi asosida barcha shahar va tumanlarida "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari"ni tashkil etildi. "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida ko'ngilli tadbirkorlarni jalg etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshlarni biriktirish tashabbusini amalga oshirildi. -Yoshlar, ayniqsa, ish va o'qish bilan band bo'lmagan yoshlar bilan mas'ullar



o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatishga xizmat qiluvchi "Yoshlar murojaati" elektron platformasini yaratish hamda amaliyotga joriy etildi.

#### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

2017-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan hunarmandchilikda aholi bandligini oshirishga imtiyozli mikrokreditlar ajratish uchun «Mikrokreditbank» ATBga yillik 2 foizli stavka bo'yicha 50 mlrd so'm miqdorida resurslar ajratildi. AT "Xalq banki"ning hududlarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularni biznesga tayyorlash, maslahat berish va bandligini ta'minlash maqsadida "Yuz ming tadbirkor xotin-qizlar" loyihasini amalga oshirish hamda loyiha doirasida quyidagilar to'g'risidagi takliflar berildi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ixtisoslashuvi va boshqa xususiyatlarini inobatga olib, qiymati 33 million so'mgacha bo'lgan tayyor biznes-rejalar bankini yaratildi. O'ttiz yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, mos yo'nalishlar bo'yicha (oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik va boshqalar) malakali mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari va o'quv treninglarni tashkil etildi. Band bo'lмаган aholiga, ayniqsa yoshlarga «Usta-shogird» usulida takomillashtirilgan o'quv dasturlari bo'yicha hunarmandchilik sir-asrorlarini o'qitish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 2018-2019 yillarda 1 mlrd so'm miqdorida mablag'lar ajratishni ta'minlandi.

#### Mulohaza va takliflar

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy bazasidan xabardor bo'ling O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi qonunlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari va ular asosida ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar).

- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlariga murojaat qiling.
- Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi, Mahalla" hayriya jamoat fondi va ularning joylardagi bo'limlari, shuningdek, "Yagona darcha" markazlaridan aholi bandligining samarali shakllari: oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, dehqon xo'jaliklari (parrandachilik, qoramolchilik) haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ling.
- Vaqtli matbuot va internet saytlaridan hozirgi zamon fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining jadal yuksalishi davrida eng ko'p ehtiyoj sezilgan kasblar hamda bu borada xorij tajribalari haqida ma'lumotlar to'planadi.





O‘z biznes loyiha va g‘oyalaringiz bilan OAV, matbuot va internet saytlarida berib boriladigan turli tanlovlarda ishtirok eting, banklardan maqsadli kreditlar olish ham hunarmandchilikni keng yoyishda asqotadi. Bundan tashqari ota-onangiz bilan oilaviy tadbirkorlik qilish haqida maslahat qiling. Mehnat va kasb-hunar borasida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir inson: □ o‘ziga ishonishi, o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘ya

olishi kerak; □ kirishayotgan ishining natijasini aniq tasavvur etishi zarur; 65 □ maqsadga erishish uchun astoydil intilishi lozim; □ shaxsiy kuch va resurslarni maksimal darajada safarbar etishi kerak; □ yuksak marralarga erishish uchun yana amaliyatga va tajribaga ham murojaat qilishi lozim; □ yo‘lida mashaqqat va og‘irchiliklar duch kelsa sabr bilan yengib o‘tishi kerak; □ muvaffaqiyatni qo‘lga kiritish bir ish bo‘lsa, uni ushlab turish va ushlab qolish eng katta ishdir. Yaxshi biling! Mehnat qilish va kasb-hunar egallash moddiy farovonlikning asosi hamda ma’naviy ehtiyojlarni qondirishning kalitidir. Unutmang! Hayotda o‘z o‘rnингизни topishda, moddiy va ma’naviy barqarorlikka erishishda: ta’magirlik, o‘g‘rilik, talon-tarojlik, poraxo‘rlikdan foydalanib, yengil pul topishni orzu qilmang! Mehnatsiz turmushning oxir yo‘li baribir jarlikdir. Mutafakkirlar aytadiki: Mehnat qilish, kasb-hunar egallash va uning orqasidan halol turmush kechirish – insonning ijodiy hamda bunyodkorlik kuchini ko‘rsatadi, kamolotini ta’minlaydi va qadrqimmatini oshirib, ulug‘lik sari yetaklaydi

### Mulohaza va takliflar

Yoshlarni qo‘srimcha kasb-hunar o‘rganish orqali hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun mas’ul va hamkorlar: 1. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchilar. 2. Mahalla, qishloq fuqarolar yig‘inlari va ularning mas’ul hodimlari. 3. Mehnat va bandlikka ko‘maklashish tuman, shahar bo‘limlari hamda ularning hududiy nozirlari. 4. Tegishli yashash hududda joylashgan kasb-hunar kollejlari. 5. “Hunarmand” uyushmasi tuman, shahar bo‘limlari va uyushma a’zolari Hunarmandchilik turlarini o‘rganish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an’analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o‘rganish va ulardan o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlanadi. bo‘lgan usta-hunarmandlar. 6. “Tadbirkor ayol” uyushmasi tuman, shahar bo‘limlari. 7. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tuman, shahar bo‘limlari. 8. Tegishli litsenziyaga





ega bo'lgan qo'shimcha kasb-hunar o'quv markazlari. 9. Davlat ro'yhatidan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, ustahunarmandlar. 10. Va boshqa davlat va nodavlat jamoat tashkilotlaridir.

## Xulosa

Hunarmandchilik turlarini o'rganish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o'rganish va ulardan o'z amaliy faoliyatilarida foydalanish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

## Adabiyotlar Ro`Yxati

- 1.O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. Tuzuvchimuelliflar: F.Umarova, A.Ubbiyeva va boshq. –T.: Bekinmachoq-plyus. 2013 yil.1-, 2-, 3-modullar.
- 2.Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Fan va texnologiya. –T.: 2008.
- 3.Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi?. –T.: Yangi asr avlod, 2010. B.186. 19. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. nizomiy nomidagi tdpu, 2010.
- 4.Yefanov A.V. Stanovleniye remeslennoy deyatelnosti i remeslennogo obrazovaniya v sovremennoy Rossii. Vestnik Mininskogo Universiteta. 2014 g.

